



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-iyul

VII-10-72-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

Farg‘ona tuman IIB boshlig‘i J.Xasanovning 2025-yilning 2-choragi davomida tumanda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi yuzasidan hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvar kungi “2025-yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-sonli Qaror ijrosi yuzasidan Muhtaram Prezidentimiz rahbarligida mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash borasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Bunda, har bir ichki ishlar organi xodimlarining asosiy maqsadi, fuqarolarimizni huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularning hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkini jinoiy tajovuzlardan asrash, bosh mezon bo‘lib qolmoqda.

Farg‘ona tumanida jinoyatchilikni oldini olish, jinoyatdan xoli xududga aylantirish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini, xuquq va erkinliklarini ta‘minlash bo‘yicha tuman xududida tizimli ravishda profilaktik ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. 2025-yil ikkinchi choragi davomida qayd etilgan jinoyatlar:

Olib borilgan ishlar natijasida tuman hududida 2025-yil ikkinchi choragi davomida jami jinoyatlar soni 55,1 foizga yoki 119 taga (216/335) oshib ketishiga yo‘l ko‘yilgan bo‘lib, oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar ham - 1,8% yoki 2 taga (110/108) kamaygan. Shuningdek 2025-yil 6 oyda qayd etilgan umumiy jinoyatlar (335 ta) har 100 ming aholiga 148,2 tadan to‘g‘ri keladi. O‘z navbatida oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar har 100 ming aholiga 47,8 tadan to‘g‘ri keladi, o‘g‘irlik 73 taga yoki 228,1% (32/105) oshgan, shundan kiber usulda 60 taga yoki 1225,0% (4/64) oshgan, shundan (oldini olish) 10 taga yoki 35,7% (28/38) oshgan, firibgarlik 42 taga yoki 323,1% (13/55) oshgan, shundan kiber usulda 35 taga yoki 975,0% (4/39) oshgan, shundan (oldini olish) 3 taga yoki 23,1% (13/16) oshgan, bezorilik 2 taga yoki 200% (1/3) oshgan, yengil tan jaroxati yetkazish (10/10) barqaror qolgan, o‘limsiz YTX 6 taga yoki 30,0% (20/14) kamaygan, o‘lim bilan tugagan YTH 1 taga yoki 25,0% (4/5) oshgan, o‘rtacha og‘ir tan jaroxati yetkazish 2 taga yoki 22,2% (9/7) kamayganligi.

O'g'irlik jinoyatlari Yangi asr, Yangiobod, O'rtaqishloq MFYlarda- 4 ta, Beruniy, Dilkusho , Damko'l MFYlarda- 2 tadan, Bo'ston, Shifokor , Tinchlik, Novkent, O'zbekiston, Sharq xaqiqati, Vodil, Baqaror hamjihatlik, Bo'ston, Yoyilma, Konchilar , Yuqori archa , Birdamlik, Mozortagi, Marg'ilon, Langar, Kaptarxona, Chimyon, Satkak, MFYlarda - 1 tadan sodir etilishiga yo'l qo'yilgan. Firibgarlik jinoyati - 55 ta (13) sodir etilib 42 taga yoki 323,1% (13/55) oshib ketishiga yo'l qo'yilgan. Shundan oldini olish mumkin bo'lgan firibgarlik jinoyati 16ta (13) sodir etilib 3 taga yoki **23,1% oshib ketishiga** yo'l qo'yilganligi. Firibgarlik jinoyatini turlari bo'yicha tahlil qilinganida, tillo buyumlarni qo'lga kiritish bilan bog'liq - 2 ta, haydovchilik guvohnomasi olib berish bilan bog'liq - 1 ta, ijtimoiy tarmoq orqali pullarni ko'paytirish bilan bog'liq- 39 ta, onlayn maxsulot sotib olish bilan bog'liq- 3 ta, firibgarlik jinoyatlari Yangi asr MFYda - 2 ta sodir etilgan, Yordon, Vodil, Log'on, Mehnatobod, Mindonobod, Xonqiz, Shoximardonobod MFY larda- 1 tadan sodir etilgan, bezorilik jinoyati- 3 ta sodir etilib 2 taga yoki 200% (1/3) oshib ketishiga yo'l qo'yilganligi, bezorilik jinoyati turlari bo'yicha taxlil qilinganida, o'zaro janjallashish bilan bog'liq 1 ta, avtomashinaga yo'l bermaslik bilan bog'liq 1 ta sodir etilgan bo'lib, ushbu jinoyatlar Navro'z 1 ta, Shifokor MFYda 2 ta sodir bulgan. Yengil tan jaroxati yetkazish jinoyati- 10 ta sodir etilib (10/10) barqaror qolgan. Yengil tan jaroxati yetkazish jinoyati turlari bo'yicha taxlil qilinganida: Ushbu jinoyatlar uzaro kelishmovchilik okibatidan kelib chikib Vodil, Yuqori archa, O'rtaqishloq, Qorasuv, Konchilar, Langar, Yangiobod, Xonqiz, Yangi asr MFYlarda sodir etilganligi, O'limsiz yo'l transport xodisasi jinoyati- o'limsiz YTX 6 taga yoki 30,0% (20/14) kamaygan, o'limsiz yo'l tranport xodisalari- Farg'ona MFYda- 2 ta, Kaptarxona, Langar, Dilkusho, Oqbilol, Satkak, Xonqiz MFYlarda- 2 tadan sodir etilganligi. Farg'ona tumandagi mahallardagi kriminogen vaziyatni taxlil qilib maxallalarni 3 toifaga ya'ni kriminogen vaziyati og'ir qizil, kriminogen vaziyati barqaror sariq, kriminogen vaziyati yaxshi yashil maxallarga bo'lib taxlil qilinganda, jami tuman bo'yicha 73 ta mahallarning- 5 ta MFY qizil,- 35 tasi sariq,- 38 tasi yashil maxallar toifasiga kiradi. Jami 73 ta mahallalarning- 5 tasi (Vodil , Damko'l, Novkent ,O'rtaqishloq, Yangiobod) MFYlar qizil,- 35 ta (Baqaror hamjihatlik, Bo'ston, Beruniy, Bo'stonobod, Dilkusho, Yoyilma, Kaptarxona, Margilon, Mehnatobod, Mindonobod, Tinchlik, Birdamlik, Mashal, Mozortagi, Navro'z, Qorasuv, Qorayontoq, Guzar, Do'stlik, Langar, Q o'riq, Tinchlik, Yangi asr, Oqtepa, Do'stlik, Chimyon, Sharq xaqiqati, Shifokor, Yuqori archa, Konchilar, O'zbekiston) MFYlar sariq, qolgan- 38 ta MFYlar yashil toifaga kiritilgan. Sodir etilgan jinoyatlar shaxslar bo'yicha taxlil qilinganda. Guruxlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar – 200,0 foizga yoki- 4 taga (2/6) oshgan, Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar– 50,0 foizga yoki 6 taga(12/6) kamaygan; Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar (6/6) barqaror qolgan, Yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar- 35,5 foizga yoki 11 taga (31/20) kamaygan; Ishlamaydigan shaxslar tomonidan- 33,3 foizga yoki- 1 taga (3/2) kamaygan, Muqaddam sudlanganlar tomonidan- 25,0 % yoki- 1 taga (4/5) oshgan, Mast xolatda sodir etilgan jinoyatlar- (1/1) barqaror qolgan. Sog'liqni saqlash muassasalarida hisobda turganlar– 351 (384) nafarni tashkil etib, shundan, 30 (28) nafar shaxslar majburiy davolanishga yuborilib, o'tgan yilning sh davriga nisbatan 7,1 foizga yaxshi natijaga erishilgan. Ma'muriy nazorat qonuni ta'siri ostiga tushuvchilar– 34 nafarni tashkil etib shundan- 17 (25) tasiga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan- 8 taga yoki 7,1 foizga kamaygan, Joriy yilning 2025 yil ikkinchi choragi davomida- 8553 ta (9181) ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, o'tgan yilga nisbatan 628 taga yoki

6,8 foizga kamaygan. Shundan, profilaktika inspektori vakolati doirasidagi moddalar bo'yicha- 7074 ta (7442) ma'muriy bayonnoma tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan- 368 taga yoki 4,9 foizga kamaygan. (har bir PI.ga 17 tadan to'g'ri kelgan)

Aniqlangan "Tig'"lar joriy yilning ikkinchi choragi davomida 202 ta (364) aniqlanib o'tgan yilga nisbatan 164 taga yoki 55,5 foizga kamaygan. Ma'muriy qamoqqa olish bo'yicha joriy yilning birinchi choragi davomida- 145 nafar (239 nafar) shaxslarga nisbatan ma'muriy qamoq qo'llanilib o'tgan yilga nisbatan 94 taga yoki 60,7 foizga kamaygan.

Ma'muriy nazorat koidasini buzish (ma'muriy) bo'yicha joriy yilning ikkinchi choragi davomida- 6 (11) nafar shaxslarga nisbatan MJtKning 206-moddasi yuzasidan ma'muriyjavobgarlik qo'llanilib o'tgan yilga nisbatan- 5 taga yoki 45,4 foizga kamaygan. Ma'muriy nazorat koidasini buzish (jinoiy) bo'yicha joriy yilning birinchi choragi davomida- 1(2) nafar shaxslarga nisbatan O'zR. JKning 226-moddasi yuzasidan jinoyi javobgarlik qo'llanilib o'tgan yilga nisbatan- 1 taga yoki 50 foizga kamaygan.

Mayda bezorilik bo'yicha joriy yilning ikkinchi choragi davomida- 260 (253) nafar shaxslarga nisbatan O'zR. MJtKning 183-moddasi yuzasidan ma'muriy javobgarlik tortilib barqarorlik saqlanib qolgan.

Jamoat joyda spirtli ichimliklar iste'mol qilish bo'yicha joriy yilning ikkinchi choragi davomida- 2516 (2059) nafar shaxslarga nisbatan O'zR. MJtKning 187-moddasi yuzasidan ma'muriy javobgarlik qo'llanilib o'tgan yilga nisbatan- 640 taga yoki 18,2 foizga yaxshi natijaga erishilgan.

Hozirda tuman hududidan jami- 21.890 nafar shaxslardan iborat bo'lib, shular orasidan voyaga yetmaganlar 1754 tani tashkil etadi.) xorij davlatlariga (ishlashga- 12263, o'qishga- 351,) nafar shaxslar uzoq muddatga chiqib ketgan. 2025 yilning shu kuniga qadar- 39735 nafar shaxslar uzoq muddatdan yashash manziliga qaytib kelgan bo'lib, ularga nisbatan olib borilgan filtr-so'rov tadbirlari davomida bor yo'g'i 24 ta tezkor ma'lumotlar olingan. Tadbir davomida, xorijiy davlatlardan yashash manziliga qaytib kelgan- 313 nafar migrantlar va ularning- 310 nafar yaqin aloqalari bilan filtr-so'rov tadbirlari o'tkazildi. Filtr-so'rov tadbirlarida yashash manziliga qaytib kelgan- 246 nafar shaxslarning ish va yashash joyiga aniqlik kiritilib, ularni 65 nafari bilan targ'ibot tadbiri (aloqa va ijtimoiy tarmoq orqali gaplashtirildi) o'tkazildi. Ma'lumot uchun: joriy yilda- 12614 nafar shaxslar ishlash va boshqa maqsadlarda xorijiy davlatlarga uzoq muddatga ketgan bo'lib, yil davomida 39735 nafar shaxslar yashash manziliga qaytib kelgan.

Probatsiya 2-nafar xodimlari tomonidan 2025 yilning 2-choragi davomida 5 nafar axloq tuzatish ishlari jazosi Jkning 46-moddasiga asosan ozodlikni cheklash jazosiga, ozodlikni cheklash jazosini o'tayotganlarning jazosi ozodlikdan maxrum qilish jazosiga almashtirildi. JIB Farg'ona tumani sudi, tuman prokuraturasi bilan xamkorlikda 8 marotaba sayyor sud o'tkazilib, 205 nafar shaxslar JKning 73-moddasiga asosan muddatidan oldin ozod qilindi. 2025 yilning ikkichi choragida jami- 19 ta yo'l-transport hodisalari sodir etilib (24/19) kamaygan, o'lim bilan bog'liq yo'l transport xodisasi - 5 ta sodir etilib 1 taga yoki 25,0 foizga (4/5) oshgan, o'limsiz YTX 14 ta sodir etilib 6 taga yoki 30,0 foizga (7/8) kamaygan. Yo'l transport hodisalarini turlari bo'yicha tahlili qilinib piyodachini urib yuborish 7 tani, to'qnashuv 6 tani, yo'ldan chiqib ketish 6 tani tashkil etadi. Farg'ona tumanida jamoat joylarida- 11 (2) ta jinoyatlar sodir etilib 9 taga yoki 450,0 foizga, ko'cha va istiroxat bog'larida- 9 (0) ta jinoyatlar sodir etilib 9 taga yoki 100,0 foizga oshib ketishiga yo'l qo'yilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Farg'ona tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Farg'ona tumani IIB boshlig'i J.M.Xasanovning "2025-yilning 2-choragi davomida tumanda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi yuzasidan hisoboti to'g'risida"gi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiyalari raislari, tuman hokimining o'rinbosarlari, tuman tashkilotlari va korxonalari rahbarlariga:

- "Jinoyat o'choq"lariga barham berish maqsadida, "Xavfsiz xonadon" va "Xavfsiz hovli" hamda "Xavfsiz tun" tizimi asosida har bir mahalladagi aholining ijtimoiy va mahalladagi infratuzilmaga oid muammolarini hal etish borasidagi tadbirlar jadallashtirish;

- "Qizil" toifaga kiritilgan kriminogen og'ir hisoblangan 5 ta mahallada notinch oilalar, o'zaro kelisha olmayotgan qo'shnilar bilan ishlash bo'yicha amalga oshirilayotgan profilaktik ishlar kuchaytirish;

- kriminogen vaziyati og'ir hisoblangan "qizil" toifa mahallalarda notinch oilalar, o'zaro kelisha olmayotgan qo'shnilar bilan ishlash bo'yicha "ijtimoiy profilaktika" tizimi amaliyotga tatbiq etish;

- fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali qonunga itoatkor bo'lishlariga erishish, o'zgarar huquqlariga hurmat bilan qarash muhiti shakllantirish;

jinoyatlar soni oshgan har bir mahallada sodir etilishiga imkon bergan asl sabab va shart-sharoitlarni chuqur tahlil qilgan holda, kelgusida ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilsin hamda kriminogen vaziyatdan kelib chiqib, kuch va vositalarning to'g'ri taqsimlanishi ta'minlash;

jinoyatchilikni oldini olish va profilaktika qilishda avvalo mahallalar kesimida ajratib olingan jinoyat sodir etishga moyil shaxslar bilan yaqindan ishlash, ularni qiynayotgan kundalik muammolarni tizimli bartaraf etilsin, uyushmagan yoshlarni bandligini ta'minlash, ularni sog'lom turmush tarziga qaytarish bilan bog'liq tadbirlar o'tkazib borish;

jinoyat sodir etgan ishlamaydigan va o'qimaydigan shaxslar tashkil etayotganligini inobatga olib, ularni bandligini va ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish maqsadida joylarda mutasaddi rahbarlar ishtirokida mazkur toifadagi shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkazilsin, uchrashuvlar davomida ularni muammolarini hal etishga qaratilgan chora tadbirlar ishlab chiqish;

ilgari sudlangan, surunkali alkogolizmga chalingan va maishiy turmushda huquqni buzishlar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yuzasidan tizimli ish tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

3. Farg'ona tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i (J.Xasanov)ga:

profilaktika inspektorlarining o'z hududlarida sodir etilgan huquqbuzarlik va jinoyatchilik to'g'risida, shuningdek, bedarak yo'qolganlar, qidiruvdagilar haqida mahalla raisiga kunlik hamda fuqarolar yig'iniga oylik hisobot berishini doimiy ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-sentabr kungi 565-sonli Qarori asosida sodir etilgan jinoyatlar jamoatchilik vakillari ishtirokida muntazam muhokamalar o'tkazib borilsin hamda buning natijasida aholining keng qatlamiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va shu orqali sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar va huquqbuzarliklarning oldini olishga erishilsin, bunda internet nashrlari va boshqa ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish;

jinoyatchilik oshgan hududlarda fuqarolar qabullarini rejalashtirilsin. Bunda aholining ish bilan band bo'lmagan, oilasi notinch, muqaddam sudlangan shaxslar ishtiroki ta'minlash;

tuman hokimining o'rinbosari (Toshpo'latov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (Alijonov) yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, tashqaridan kirib kelayotgan tuban "Ommaviy madaniyat"ning turli illatlari xavfi va zararli ta'sirlaridan himoya qilish maqsadida, chetdan kirib kelayotgan bosma nashrlar, audio-video materiallari, teleko'rsatuvlar, internet saytlarini muntazam ravishda taftishdan o'tkazib turilishi tashkil etilib, aniqlangan salbiy holatlar yuzasidan qonuniy choralar ko'rish;

tuman tibbiyot birlashmasi (Toshboyev) bilan birgalikda giyohvandlik va surunkali alkogolizmga chalingan hamda ruhiy tajovuzkor shaxslarni majburiy davolashga yuborish bo'yicha faoliyat kuchaytirish;

tuman hokimining o'rinbosari (Abdug'aniyeva) bilan birgalikda oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan jinoyatlar soni ortganligini inobatga olgan holda sodir etgan shaxslarning ro'yxati tuzilib, ularning har biri bilan suhbatlar o'tkazib borilishi tashkillashtirilsin;

tuman IIB YHXB (Masudov), mutasaddi idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-iyul yil kungi Prezidentimiz 2022-2026-yillar davomida amalga oshirilish mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umummilliy dasturini tasdiqlash to'g'risidagi PQ-316-sonli Qarori ijrosini to'liq va sifatli bajarilishi ta'minlash;

yo'l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi faoliyatni tanqidiy ko'rib chiqib, ushbu hodisalarning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni **bir hafta muddatda** ishlab chiqilsin va amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari (Ergashev), "Vodil yog'dusi" gazetasi tahririyati (Dadaxo'jaev)larga:

"Jinoyatga qarshi kurashish haqiqati va adolati" rukni ostida amalga oshirilayotgan profilaktika chora-tadbirlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholiga yetkazish;

har bir sodir etilayotgan jinoyat chuqur tahlil etilib, jinoyatning kelib chiqish sabablari, imkon bergan shart-sharoitlar jamoatchilik orasida muhokama etilib, kelgusida mazkur holatlarni takrorlanishini oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilansin va OAVlarida to'liq yoritib borish;

aholini ogohlikka chaqirish va hushyorligini oshirish maqsadida sodir etilayotgan jinoyat va baxtsiz hodisalar bo'yicha misollar asosida videoroliklar tayyorlanib, OAVlarida orqali doimiy namoyish etib borish;

haydovchi va piyodalarda yo'l harakati qoidalariga rioya etish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan videorolik va chiqishlarni tizimli ravishda tashkil etish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining "Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash

va huquqiy masalalari” bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Q.Makarov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



ABDURAXMONOV
ILXOMJON
AKBARALIYEVICH